

OMMAVIY TARTIBSIZLIKLARNI OLDINI OLISHDA ZAMONAVIY TEKNOLOGIYALARNING O'RNI VA ROLI

Jamoat xavfsizligi universiteti

magistratura tinglovchisi

Axmedov Yolqin Yakubovich

Annotatsiya: ushbu maqolada ommaviy tartibsizliklarni tashkillashtirishda zamonaviy texnologiyalar ayniqsa ijtimoiy tarmoqlar katta rol o'ynamoqda. Jahonda sodir bo'lgan so'nggi ommaviy tartibsizliklarning katta qismi ijtimoiy tarmoqlar orqali tashkillashtirilmoqda va tobora ushbu tarmoqlar orqali zo'ravonlikka, jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarga chorlash amalga oshirilmoqda. Shuningdek tartibsizliklarni oldini olishda zamonaviy texnologiyalarni qo'llash zarurati qanchalik muhimligi haqida fikirlar bildirilgan.

Kalit so'zlar: Ommaviy tartibsizliklar, ijtimoiy tarmoqlar, norozilik namoyishlari, internet, suniy intellekt, kuch tuzilmalar.

Аннотация: В статье рассматривается роль современных технологий, особенно социальных сетей, в организации массовых беспорядков. Значительная часть недавних массовых беспорядков в мире была организована через социальные сети, и все чаще эти сети используются для подстрекательства к насилию и преступлениям против общественного порядка. Также были высказаны мнения о важности использования современных технологий для предотвращения беспорядков.

Ключевые слова: Массовые беспорядки, социальные сети, протесты, интернет, искусственный интеллект, силовые структуры.

Abstract: This article discusses the role of modern technologies, especially social networks, in organizing mass unrest. A large part of the recent mass unrest in the world has been organized through social networks, and increasingly, these networks are being used to incite violence and crimes against public order. It also discusses the importance of using modern technologies to prevent unrest.

Keywords: Mass unrest, social media, protests, internet, artificial intelligence, power structures.

Hozirgi kunga kelib raqamli texnologiyalar hayotimizga shiddat bilan kirib kelmoqda. Raqamli texnologiyalar qator sohalarning rivojlanishiga fuqarolar hayotini yahshilashga xizmat qilish bilan bir qatorda salbiy taraflari ham namoyon bo'lmoqda. Jumladan jamoat xavfsizlini buzilishi, noqonuniy mitinglar, namoyishlar tashkil qilishda konstitutsiyaviy tizimni izdan chiqarishda odamlarni ongiga ta'sir etish va ularni zo'rlik ishlatishga targ'ib qilish bevosita ijtimoiy tarmoqlar orqali amalga oshirilmoqda. Hukumatlarga qarshi o'tkaziladigan namoyishlar ijtimoiy tarmoqlar orqali faollar tomonidan rejalashtirilayotganda zo'rlik ishlatish, ma'muriy binolarga o't qo'yish kabi targ'ibotlardan keng foydalaniladi. Dunyoda sodir bo'lgan so'nggi ommaviy tartibsizliklarni o'rganishimiz shuni ko'rsatadiki tartibsizliklarni tashkillashtirishda ijtimoiy tarmoqlar katta ahamiyat kasb etmoqda, jumladan Belarus davlatida sodir bo'lgan ommaviy tartibsizliklar Telegram messenjeri orqali tashkillashtirilgan va tartibsizliklar o'tkazish joylari ham ushbu tarmoq yordamida tashkillashtirilgan.

Texnologiyalar Osiyoda sodir bo'layotgan hukumatga qarshi noroziliklar dinamikasini o'zgartirib yuborganini Gongkong, Tailand va Myanmada sodir bo'lgan noroziliklar misolida ko'rish mumkin. Bundan bir necha o'n yillar oldin smartfonlar va ijtimoiy tarmoqlar iste'mol tovarlari sifatida boshlang'ich bosqichda edi, ammo ular hozirgi kunda allaqachon namoyishlarni tashkil qilishning kuchli vositasi sifatida namoyon qilib kelmoqda. 2019-2020 yillarda sodir bo'lgan Gongkongdagi norozilik namoyishlari shuni ko'rsatdiki, smartfonga egalik qilish va ular yordamida istalgan joyda internetga ulana olish kabi texnologik yutuqlar onlayn va oflayn kompaniyalar o'rtasida platforma hosil qilgan holda virtual olamda norozilik namoyishlarini olib borish imkonini bermoqda garchi jismoniy jixatdan ushbu namoyish tugagan bo'lsa ham. Umuman olganda, jamoatchilik va politsiya, xususan, jamoat tartibini saqlash politsiyasi o'rtasidagi aloqa, hatto demokratik davlatlarda ham juda nozik masala hisoblanadi. Raqamli texnologiyalar, shuningdek, 2020 yilgi Belarussdagi saylovdan

keyingi norozilik namoyishlari paytida mobilizatsiya va demobilizatsiyada muhim rol o'ynadi. Ijtimoiy tarmoqlar, ayniqsa, tezkor xabar almashish ilovalari o'z vaqtida ma'lumot almashish va namoyishchilarni tez va markazlashmagan holda tashkil etish imkonini berdi. Rasmiylar vaqti-vaqti bilan Internetni o'chirib qo'yish orqali ushbu voqealarga javob berishga harakat qilishdi. Biroq, cheklovlarni chetlab o'tish maqsadida, belaruslik namoyishchilar tez-tez yakshanba kungi norozilik yurishlari joylarini qisqa vaqt ichida e'lon qilishdi. Telegram kabi messenjerlarning afzalligi shundaki, ular bu o'chirishlarni chetlab o'tgan. Telegram messenjerining turli kanallari, jumladan Varshavada joylashgan Nexta, xorijdan faoliyat yurituvchi Footnote 14 kabi ko'plab kanallar namoyishchilarning yagona aloqa va muvofiqlashtirish vositasiga aylandi. Shuningdek, muxolifat va ko'chalarda namoyishchilar tomonidan politsiya bilan zo'ravonliksiz aloqa o'rnatishga urinishlar (onlayn va oflayn) bo'lib, politsiyani ular qilayotgan ishlari axloqiy jihatdan noto'g'ri ekanligiga va politsiyani o'zlari tarafga o'tishi ular uchun yaxshiroq bo'lishiga ishontirishga harakat qilishdi.

Munozaralar, his-tuyg'ular va gullar kerakli natijani bermagandan so'ng, namoyishchilar politsiyaga tahdid qila boshladilar va oxirgi chora sifatida ommaviy sharmandalik bilan shug'ullanishdi: ularni fosh qilishga urinib, tasvirga olish va shaxsini aniqlash uchun niqoblarini yirtib tashlashdi. Umuman olganda, aloqa tezlashdi va yangi aloqa kanallari politsiya va namoyishchilar o'rtasidagi munosabatlarni o'zgartirdi. Bir tomondan, bu norozilik namoyishlarini tashkil etish va safarbar qilish usullarini yaxshiladi va politsiyani demobilizatsiya qilish harakatlariga to'sqinlik qildi. Boshqa tomondan, bu fuqarolar va politsiya guruhlarini o'rtasida noto'g'ri ma'lumotlarning tarqalishiga va bir-birini obro'sizlantirishga urinishlariga yordam berdi. Ijobiy tomoni shundaki, namoyishchilar va politsiya o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri aloqa yaxshilangan, ommaviy norozilik namoyishlari paytida keskinlik pasayishi ehtimoli ortadi.

Tartibsizliklarni bartaraf etishga jalb etilgan bo'linmalar tartibsizlik ishtirokchilari bilan muloqot o'rnatib nafaqat keskinlikning pasayishiga balki,

tartibsizliklik tashkilotchilarini aniqlash va ularni keyinchalik qo‘lga olishga ham katta samara beradi. Shuningdek suniy intellektni qo‘llash orqali tartibsizliklarni sodir bo‘lishini oldindan tahlil qilish, tartibsizlik ishtirokchilari sonini o‘sib borishi yoki kamayishini va zo‘ravonlik darajasini tahlil qilish mumkin.

Ba’zi mamlakat hukumatalari tomonidan terrorizmga qarshi kurashda radikallashuv bilan bog‘liq kalit so‘zlar yoki xatti-harakatlarni aniqlash uchun foydalaniladigan ma’lumotlarni yig‘ish vositalari shahar tartibsizliklarining oldini olishda foydali bo‘lishi mumkin. Fransiyada Suadeo ichki ishlar vazirligining katta ma’lumotlar bazasini boshqaradi, u ochiq manbalardan 150 ta qayta ishlanmagan ma’lumotlar to‘plamini, shuningdek mahalliy prefekturalarning ichki manbalari va sharhlarini to‘playdi. Bu ma’lumotlar “voqea sodir bo‘lishi yoki u tezlashishi mumkinligi haqida tushuncha hosil bo‘lishiga signal beradi”. Ommaviy tartibsizliklarni oldini olishda zamonaviy vositalarni qo‘llash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda zero oldindan qo‘llanilib kelinayotgan vositalar kam samara bermoqda yoki ushbu vositalarga qarshi ommaviy tartibsizliklar ishtirokchilari qarshi vosita qo‘llamoqda. Gongkongda sodir bo‘lgan ommaviy tartibsizliklar vaqtida ko‘zni yoshlantiruvchi va nafasni bug‘uvchi gaz granatalariga qarshi respiratorlar va soyabonlarni qo‘lladi. Natijada ushbu gaz granatalari tartibsizliklarni tarqatishda umuman samara bermagan. Jumladan LRAD pistoletlari odam chidab bo‘lmas darajadagi baland ovoz chiqarish xususiyatiga ega. LRAD 2000X qurilmasining harbiy modefikatsiyasi 162dB darajadagi baland ovoz chiqarib uni 8,85 km uzoqlikka tartqatishi, bunda baland ovoz 30 gradus ostida ta’sir doiraga ega bo‘ladi.

Skunk- bu juda yoqimsiz, o‘ziga hos hidga ega bo‘lgan maxsus aralashma.bugungi kunda skunklar suv sepuvhchi mahsus zirhlangan texniklar yordamida ommaviy tartibsizliklarda ishtirok etayotgan olomoning ustidan sepilmoqda. Isroil davlati tomonidan qo‘llaniladigan ushbu suyuqlik ularning ta’kidlashicha odam sog‘ligiga mutlaqo zarari yo‘q va u tabiiy vositalardan tayyorlangan.

Xulosa

Ommaviy tartibsizliklarni rivojlanib keng ko‘lamli tartibsizliklarga aylanib ketishida internet va ijtimoiy tarmoqlar katta rol o‘ynamoqda, ushbu holatda tartibsizliklarni barvaqt oldini olish uchun huquq tartibot organlari tomonidan doimiy ravishda internet tarmog‘ida jumladan ijtimoiy tarmoqlarni doimiy kuzatish va tahlil qilib borish va yuzaga kelgan noroziliklarga zudlik bilan munosabat bildirish har qanday sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan ommaviy noroziliklarni oldini olishda katta samara beradi. Yuqoridagilardan yana shuni ko‘rishimiz mumkinki ommaviy tartibsizliklar vaqtida internetni uzib qo‘yish bu tartibsizliklarni bartaraf etishda yechim bo‘la olmaydi. Bunday vaqtda internetni cheklash emas balki internet orqali aholiga ommaviy tartibsizliklarning salbiy oqibatlari haqida keng qamrovli tushuntirish va tartibsizliklar boshlanishiga sabab bo‘lgan muammoni qonuniy hal qilish bo‘yicha amaliy qilingan ishlar bo‘yicha hisobotlar berilsa internet tarmog‘ini o‘chirib qo‘yishdan ko‘ra ko‘proq samara beradi.

Ommaviy tartibsizliklarni bartaraf etishda inson o‘limiga olib kelmaydigan zamonaviy qurol va maxsus vositalarni qo‘llash talofatlarni minimallashtirish va yo‘qotishlarni oldini olishga olib keladi deb hisoblaymiz. Doimiy qo‘llanilib kelinayotgan vositalarga tartibsizlik ishtirokchilari tomonidan qarshi vositalar qo‘llanilishi oqibatida o‘z samarasini bermayotgani ham ushbu vositalar o‘rniga zamonaviy maxsus vositalarni qo‘llash zarurligini ko‘rsatmoqda.

Adabiyotlar:

1. <https://amp/s/amp.scmp.com/week-asia/opinion/article/3141952/technology-resaped-asias-protest-movements-can-it-effect-real>
2. <https://www.tandfonline.com/doi/full/10.1080/10439463.2023.2279058>
3. <https://sd-magazine.com/?p=12911>
4. <https://en.topwar.ru/57330-noveyshie-tehnologii-dlya-razgona-demonst.html>